

## AQSH-XITOIY MUNOSABATLARINING DUNYO TARTIBOTIGA TA'SIRI

*Ergashbayev Sherzod, Jahon iqtisodiyoti va  
diplomatiya universiteti Xalqaro  
munosabatlar fakulteti talabasi E-mail:  
[ergashbayevs@gmail.com](mailto:ergashbayevs@gmail.com)*

**Annotatsiya.** AQSh-Xitoy munosabatlarining keskinligi dunyo tartibotini yangilanishiga olib kelmoqda. Shu maqsadda yangilanayotgan dunyo tartibotini ilmiy tadqiq qilish dolzarblashmoqda. Ushbu maqolada AQSh va Xitoyning dunyoda kechayotgan zamonaviy siyosiy jarayonlarga ta'siri keng yoritib berilgan. Bunda event-tahlil, qiyosiy tahlil va intervyu ilmiy metodlaridan foydalanilgan. Maqolada Xitoyning iqtisodiy kuchayishi kuchlar muvozanati o'zgarishiga olib kelishi, jahon hamjamiyatida Xitoy mafkurasiga bo'lgan hayrixohlik oshishi va AQSh-Xitoy ziddiyati mintaqaloro kesimda davom etishi xulosa qilingan. Maqolada ushbu ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning tadqiqoti bo'yicha yangi yo'nalishlar va siyosiy qarashlar keltirilganligi bilan ajralib turadi va u xalqaro munosabatlar bo'yicha mutaxassislar va tashqi ishlar sohasidagi mutasaddilarning faoliyatida foydali bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** AQSh-Xitoy munosabatlari, dunyo tartiboti, kuchlar muvozanati, Xitoy mafkurasi, soft power, regionalizm.

"Xitoy uxlab qolsin, chunki u uyg'onganida u dunyoni larzaga keltiradi", - deb Napoleon Bonapartga tegishli iqtibosni juda ko'p uchratamiz[1]. Bu so'zlar Napoleon Bonapart tomonidan aytilganmi yoki yo'qmi, ammo Xitoy Xalq Respublikasi (XXR)ning iqtisodiy taraqqiyoti, harbiy salohiyatining kundan kunga oshib borishi, hamda hozirgi tashqi siyosati bu so'zlar haqiqatga yaqinligini ko'rsatib bermoqda. Hattoki, ba'zi

bir olimlar Amerika Qo'shma Shtatlarining gegemonligi o'z nihoyasiga yetmoqda degan o'z bashoratlarini bildirishmoqda.

Xitoy o'zining iqtisodiy, harbiy, siyosiy nufuzini 1989-yildan boshlab, asosan, Sovuq urush tugaganidan so'ng sezilarli darajada oshirib kelmoqda. Xitoyning dunyoning ikkinchi yirik iqtisodiyoti sifatida paydo bo'lishi butun dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiy o'zaro bog'liqlikning kuchayishiga olib keldi[2]. Xitoy savdosi va sarmoyasining kengayishi boshqa davlatlar uchun ham imkoniyatlar, ham qiyinchiliklar tug'dirdi. Masalan, Belt and Road Initiative (BRI) infratuzilmani rivojlantirish va ulanishni osonlashtiradi, ammo qarz barqarorligi va potensial geosiyosiy ta'sirga oid xavotirlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, ko'plab G'arb davlatlari, ayniqsa, AQSh XXRning Den Syaopin davridan boshlab kuchayib borayotgan iqtisodiy taraqqiyot modelidan xavotirga tushayotganiklari aniq. Bunga sabab, Xitoy olib borayotgan bozor iqtisodiyoti AQSh va G'arb davlatlari tomonidan tasarruf qilinayotgan bozor tuzumini, dunyoning iqtisodiy tartibotini o'zgartirishga olib kelishi mumkin.

Xitoy Xalq Respublikasi sotsial tuzumdagi davlat hisoblansa-da, liberal bozor iqtisodiy taraqqiyotni ham chambarchas olib ketmoqda. Ya'ni boshqa davlatlarga o'xshamagan gibrid siyosiy institutni yarata olishdi: demokratik xususiyatlarga ega partiya avtoritarizmi. Birinchi navatda, XXRning iqtisodiy modelida siyosiy kuch va qaror qabul qilishda demokratik element va kollektiv boshqaruv aralashmasidan hosil bo'lgan partiya avtoritarizmidan, davlat aralashuvi va erkin bozor prinsiplari aralashmasidan tashkil topgan bozor avtoritarizmi tamoyiliga asoslanadi[3]. Ikkinchidan, siyosiy kuchga bo'ysundirilgan yangi iqtisodiy mantiq bozor avtoritarizmiga asoslangan tamoyil yotadi[4].

Tabiiyki, Xitoy modeli Rossiyaning SSSR davridagi shok terapiyasidagi iqtisodiy bozorga o'tishdagi siyosiy xatoga uchramagan, AQShdan farqli ravishda tez sur'atlarda iqtisodiy taraqqiyotga erishgan

namuna hisoblanadi. Shu sababdan, rivojlanayotgan mamlakatlar yoki rivojlanmagan mamlakatlar o'zlarining taraqqiyot namunalarini AQSh tomonidan yaratilgan iqtisodiy tartibotni emas, balki XXR tomonidan yaratilayotgan dunyo tartibotiga yon bosish ehtimoli oshib borishi mumkin.

Tabiiy ravishda, Xitoy modeli ham kamchiliklarga ega, ya'ni barqaror emasligi aniq. Sababi iqtisodiy rivojlanish natijasida yechimini topish zarur bo'lgan iqtisodiy muammolar: yuqori qarz, sohilbo'yi va ichki shaharlardagi rivojlanish tafovuti, atrof-muhit ifloslanishi va boshqa shu kabi muammolarni unutmasligimiz kerak.

AQSh tarafidagi G7 dunyoning yetti ilg'or iqtisodiyoti davlatlarining norasmiy birlashmasiga hozirgi kunda BRICS tashkiloti asosiy raqib deb hisoblanmoqda. Bu ham AQSh va Xitoyning raqobatini ko'rsatadi. Bu kurashda BRICS tashkiloti ancha xavf solishi kutilmoqda, hatto, ayrim tahlilchilarning fikriga ko'ra, dunyo tartibotidagi muvozanatni keskin burilishiga olib kelishi kutilmoqda. Prognozlarga ko'ra, 2030-yilgacha yangi a'zolarining qo'shilishi natijasida BRICS mamlakatlari jahon YaIMning 50%izidan ortig'ini ta'minlay oladi. Bu esa jahon iqtisodiyoti va dunyo tartibiga katta ta'sir ko'rsatadi. Agar BRICS mamlakatlari umumiy valyutadan foydalangan holda savdo qilishga kelishib olsa, bu dedollarizatsiya jarayonini tezlashtirishi mumkin.[9] Bu esa AQShning yana bir ta'sir kuchini yo'qolishini anglatadi. Agar bu tashkilotga qarshi G7 mamlakatlari muvozanatni tiklash maqsadida AUKUSni qamrovini kuchaytirishmasa, dunyo hukmronligini qo'ldan boy berishlari tabiiy.

XXI asrga kelib dunyo hamjamiyatida mamlakatlar aholisiga ta'sir o'tkazishning hard power(qattiq kuch) usulini soft power(yumshoq kuch) egalladi. Sababi aynan shu yo'l bilan, aholiga singdirilgan biron davlatning yumshoq kuchi doirasida yaratilgan tasvirlari orqali, ular dunyo xalqiga amalga oshirayotgan "yordam"lari, xalqaro arenadagi "xaloskor" maqomlari kabi imidjlari orqali o'z obro'sini, hamda ta'sir doiralarini, siyosiy kuchini 75

yuqori darajada oshirib bora olishyapti. 2023-yilda dunyodagi eng yaxshi yumshoq kuch davlatlari reytingida AQSh o'z peshqadamligini saqlab qolmoqda[2]. Xitoy esa reytingda bu yil 5-o'rinni egalladi[3]. "Amerikacha" hayot, amerika kinolari, har xil turdagi yoshlarga ta'lim berish bo'yicha almashinuv dasturlari, gumanitar yordamlari, Kennedi davridan beri "Peace corps" dunyodagi nochor davlatlarga moddiy yordam ko'rsatish loyihasi[4], tez tayyor bo'luvchi (fast-food) brendlari, qo'shiqlar va boshqa shu kabi yumshoq kuchlari AQShning siyosiy, madaniy va boshqa barcha turdagi kuchini 1-o'rinda saqlab kelmoqda va dunyoda o'z tartibotini amalga oshirishga imkon berib kelmoqda. Bu borada Xitoy ham o'z madaniyatini yoyish maqsadida juda ko'p filmlari orqali dunyoga mashhur. Misol uchun yumshoq kuch tahlilchisi Nyening ta'kidlashicha, Amerika kino kassalarida eng ko'p daromad olib kelgan xorijiy filmlardan biri Crouching Tiger Hidden Dragon filmi Xitoyning madaniy yumshoq kuchi muvaffaqiyati sifatida aytilmoqda[5]. Bundan tashqari, Xitoy jang san'ati sifatida tan olingan Kung-Fu, Ip Man filmlari davlat madaniyatini keng yoyishga yordam berib kelmoqda. Xitoy media sohasini rivolantirish borasida ham 2009-yildan beri 9 milliard dollar pul sarfladi, hamda buning natijasida CCTV, Xinhua, Global Times va China Radio International (CRI) global axborot agentliklarini ta'sir doirasini kengaytirib oldi[6]. Hamda Afrika mamlakatlarida hamkorlik va o'z nashrlarini chiqaradigan gazeta, o'zining teleradiokompaniyalarini ham ishga tushirishga muvaffaq bo'ldi.

Albatta Xitoyning yumshoq kuchi borasida gap ketganda, uning rivojlanish modeli, hamda boshqa davlatlarga kiritayotgan investitsiyalarni ham aytib o'tish joiz. AQShdan farqli o'laroq, Xitoy kredit va savdo aloqalariga alohida shartlar qo'ymaydi. Shuning uchun ham Xitoy investitsiyalari orqali "qahramon xaloskor" va yaxshi "sherik" sifatida o'z siyosiy kuchini oshirib olmoqda.

11-sentabr voqealaridan so'ng AQSh endilikda qattiq kuchdan foydalanishga o'tgan edi. Hamda Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng, yagona gegemon davlat sifatida, endilikda dunyoda "politsiyachi" rolini

bajarmoqchi bo'ldi. Buning oqibatida keyinchalik noto'g'ri deb topilgan juda ko'p urushlarni olib bordi. Misol uchun, Vetnam urushi, Iroqqa bostirib kirishi, NATOning Yugoslaviyani bombardimon qilishi, Afg'onistondagi harakatlar va shu kabi bir qancha faoliyatlari natijasida ko'pgina davlatlarning nafratiga uchradi. Bu esa yangi dunyo tartibi o'rnatish davrida, ko'p mamlakatlar Xitoy tomonida turishiga olib kelishi mumkin.

Ammo Xitoyning qarzlari, investitsiyalari xavfsiz emas ko'rinadi. Bunga sabab ayrim kredit olgan davlatlarning qarzlari evaziga o'z mamlakat hududlarining bir qismini foydalanishga yoki bo'lmasa Xitoyning tasarrufiga o'tishi bilan izohlash mumkin. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Xitoy o'zining "qarz tuzog'i diplomatyasi" orqali Misrga bergan 8 milliardlik krediti evaziga, uning muhim strategik portlariga va aeroportlariga almashtirishni muhokama qilgan[7]. Agarda qarzi evaziga Suvaysh kanalini o'z nazoratiga olsa, Xitoy jahon iqtisodiyotini qo'lga olishi mumkin. Bu kabi jarayonlardan so'ng Xitoyning qarz ilmog'iga tushishdan yoki undan qutulish uchun AQShning yaxshiroq taklif yordamini kutishlari mumkin.

AQSh Xitoyning kamchiliklaridan, boshqa davlatlarga solib qo'ygan qo'rquvlaridan uddaboronlik bilan foydalangan holda, bu harakatlarni o'z tomoniga burib olishi zarur. Aks holda, Xitoy hech qanday zo'ravonliklarsiz, tajovuzlarsiz, huquqiy yo'l bilan barcha muhim yerlarga ega chiqishda, davlatlar orasida o'z siyosiy nufuzni oshirishda davom etaveradi. Bu esa xalqaro arenada AQSh gegemonligini batamom barham topishiga katta zamin yaratib beradi. Xitoy esa AQShning kelgusidagi harakatlariga tayyor turishi zarur, va hozirdagi AQShning hukmronligiga bo'lgan boshqa davlatlarning qarshiligidan tezroq foydalanib qolishi darkor.

Amerika Qo'shma Shtatlarining esa bu borada o'z pozitsiyalarini mustahkamlab kelmoqda. Misol uchun, XXRning qo'shni davlatlari Yaponiya, Koreya, Tinch okeani mintaqasidagi barcha davlatlar bilan koalitsiya tuzib bormoqda. Uning eng katta yutuqlaridan biri yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek

yumshoq kuchi, va u bilan hamkorlik qilgan davlatlarning taraqqiyot darajasi yuqoriligi uning dunyo hamjamiyatida gegemonligini saqlab kelmoqda.

AQSh va XXR davlatlarining raqobati mintaqalar kesimida ham davom etishni bohladi. Bunga misol qilib, Yaqin Sharq mintaqasini olishimiz mumkin. Vashington Yaqin Sharq mintaqasida demokratiya urug'ini sochish niyatida qilgan hatti-harakatlari natija bermadi. Aksincha, ko'plab davlatlarning vayrongarchilik oqibatlariga, qo'shni davlatlarning bir biriga dushmanlik kayfiyati oshib bordi. Pekin esa o'zining 2022-yilda e'lon qilgan Global Xavfsizlik Tashabbusi orqali Saudiya Arabistoni va Eronning to'xtab qolgan diplomatik aloqalarini qayta tikladi. Hamda Isroil-Falastin, Rossiya- Ukraina mojarolariga ham o'z yechimlarini taqdim etdi. Osiyo va Afrika mintaqasida Xitoyning ta'siri ortib borayotgan bo'lsa-da, AQSh Hind-Tinch okeani, Yevropa mintaqasida haligacha o'zining mustahkam pzotsiyasini saqlab kelmoqda.

XXRning 3 yil davomida 2021-yil Global Rivojlanish Tashabbusi, 2022-yilda Global Xavfsizlik Tashabbusi, 2023-yilda Global Sivilizatsiyalar Tashabbuslari orqali Amerika va G'arb davlatlari tomonidan o'rnatilgan dunyo tartibotiga javoban o'zi yaratgan tartibotni dunyo davlatlariga taqdim etmoqda va ko'plab davlatlar bu jarayonga qo'shilishmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, XXR va AQSh raqobati dunyo tartibotida o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib kelmoqda. XXRsi o'z tashabbuslari bilan Amerika uchun xavfli tus olmoqda. Shunga qaramasdan, Amerikaning yumshoq kuchi va boshqa davlatlar bilan hamkorlik va koalitsiyalari oldida Xitoy hali ko'proq ishlar amalga oshirishi kerakligini anglatmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://www.google.com/amp/s/www.forbes.com/sites/ewelinaocha/b/2021/01/13/let-china-sleep-for-when-she-wakes-she-will-shake-the-world/amp/>

2. <https://www.unrisd.org/en/activities/events/the-legend-of-chinas-growth/seminar-paper>
3. <https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/9183/>
4. <https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/9183/>
3. <https://brandirectory.com/softpower/>
4. <https://brandirectory.com/softpower/>
5. Gafarov I. Jon Fidjerald Kennedi. -Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022y. - 75 b.
6. Ryan Avery, "An examination of China's soft power", 2015,-43 b. [https://www.researchgate.net/publication/330175264\\_An\\_Examination\\_of\\_China's\\_Soft\\_Power](https://www.researchgate.net/publication/330175264_An_Examination_of_China's_Soft_Power)
7. Ryan Avery, "An examination of China's soft power", 2015,-43 b. [https://www.researchgate.net/publication/330175264\\_An\\_Examination\\_of\\_China's\\_Soft\\_Power](https://www.researchgate.net/publication/330175264_An_Examination_of_China's_Soft_Power)
8. <https://kun.uz/en/news/2022/10/31/analysis-is-chinas-debt-trap-diplomacy-dangerous-for-central-asia>
9. <https://telegra.ph/BRICS-va-yangi-dunyo-tartibining-siyosiy-iqtisodi-06-30>
10. Rashitovna, Kadirova Nargiza. "Consular law: international legal framework, experience of leading democratic countries." European research 1 (24) (2017): 58-61.